

# Xalqaro do'stlik kuni nishonlandi



Xalqaro do'stlik kuni nishonlandi

Davlatimiz rahbari tomonidan so'nggi yillarda yurtimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, kecha "Xalqaro do'stlik kuni" munosabati bilan Termiz shahridagi San'at saroyida "Do'stlik festivali" o'tkazildi.

Unda vohamizdag'i tojik, rus va turkman milliy madaniy markazlarining vakillari hamda ukrain, koreys, qozoq va qoraqalpoq millatiga mansub fuqarolar o'zlarining milliy qo'shiq va raqslari bilan yig'ilganlarga hursandchilik ulashdi.

Shuningdek, festival doirasida milliy madaniy markazlar tomonidan tayyorlangan hunarmandchilik mahsulotlari va milliy taomlar ko'rgazmasi ham namoyish etildi.







